

RASMIY MUNOSABAT

Fuqaro Yusupova Nilufar Erkinovnaning ijtimoiy tarmoqlarda uy-joy masalasida qilgan murojaati yuzasidan Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limi quyidagilarni ma'lum qiladi.

Aniqlanshicha, fuqaro N.Yusupova shu kunga qadar Farg'ona shahar hokimligiga uy-joyga muhtoj oila sifatida ariza va unga ilova bo'lgan hujjatlar bilan murojaat etmagan va shahar hokimligi tomonidan davlat uy-joy fondidan turar joy olish uchun muhtojlar sifatida hisobga olinmagan.

Muqaddam uy-joyga oid nozalar sababli sud hukmi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan N.Yusupova nomida Farg'ona shahar Al-Farg'oniy ko'chasi 77-uyning 7-xonadoni (2 xonali) xususiy mulki bo'la turib, Farg'ona shahridagi egasiz qolgan xonadonlarni o'zboshimchalik bilan egallab kelayotganligi va bu bilan jamoatning haqli e'tirozlariga sabab bo'lib kelayotganligi ma'lum bo'lgan.

Jumladan, fuqaro N.Yusupova uy-joysiz qolganligini vaj qilib, o'zboshimchalik bilan Farg'ona shahar Yangi asr ko'chasi 144-uyning 98-xonadoni hamda Kirguli ko'chasi 9-uyning 8-xonadonlarini noqonuniy tarzda egallab kelmoqda.

Egallab olingan mazkur xonadonlar bo'lim mutxassislari tomonidan o'rganilganda, xonadonlar boshqa shaxslarga tegishli xususiy xonadonlar ekanligi va xususiy turar joylar daxilsiz ekanligini inobatga olib, fuqaro N.Yusupovaga xonodon mulkdorlari yoki uning merosxo'rлari xonadonga egalik qilishi mumkinligi va uning amalga oshirgan bunday noqonuniy ishlari javobgarlikka tortilishiga olib kelishi to'g'risida huquqiy tushuntirishlar berilgan.

Biroq, fuqaro N.Yusupova mutaxassislar tomonidan berilgan huquqiy tushuntirishlarni inobatga olmasdan, go'yoki oilasi bilan ko'chada qolib ketganligini vaj qilib ijtimoiy tarmoqlarda murojaatlarini qoldirmoqda.

Xozirgi kunda Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi uy-joy bo'limining mutaxassislari tomonidan fuqaro N.Yusupova noqonuniy egallab olgan turar joylarni aniqlash va kelib chiqqan nizolarni bartaraf etish bo'yicha surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-01-30 17:25:56